

---

## ALIMENT UNDIRISH BO'YICHA "DOLZARB XAFTALIK" TADBIRI VA "CHAQALOQ HAMDA ODAM SAVDOSI"



2022 yil 29 noyabr kuni jinoyat ishlari bo'yicha Quvasoy shahar sudining raisi R.Zaripov Quvasoy shahar "Cho'lpon" mahalla fuqarolar yig'ini binosida tashkil etilgan sayyor uchrashuv yig'ilishida aliment undirish bo'yicha qarzdor G'.X.dan undiruvchi O.X.ga ikki nafar voyaga etmagan farzandlari uchun 5.578.746 so'm aliment pullarini to'liq to'laganligi 2022 yil 29 noyabr kuni jinoyat ishlari bo'yicha Quvasoy shahar sudi tomonidan O'zbekiston Respublikasi MJtKning 271-moddasi 10-qismiga asosan ish tugatilgan.

Shuningdek, qarzdor D.J.dan undiruvchi D.J.ga bir nafar voyaga etmagan farzani uchun 12.785.122 so'm aliment pullarini to'liq to'laganligi uchun 2022 yil 29 noyabr kuni jinoyat ishlari bo'yicha Quvasoy shahar sudi tomonidan O'zbekiston Respublikasi MJtKning 271-moddasi 10-qismiga asosan ish tugatilgani haqida ma'lum qilib, bugungi kunda dolzarb mavzuga aylanib borgan chaqaloq va bolalar savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha gapirib, hozirgi kunda chaqaloq va bolalar savdosi faqat O'zbekiston Respublikasida emas, balki butun dunyoda keng ommalashib ketayotganligi, unga qarshi faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas balki oddiy fuqarolar, shu o'rinda shifokorlar ham umuman tibbiyot xodimlari jiddiy tarzda qarshi kurashishlari kerakligi.

Bu bo'yicha davlatlar o'rtasida juda ko'plab xalqaro hujjatlar, paktlar imzolangani, mazkur faoliyatga qarshi hozirgi kunda butun dunyo davlatlari jiddiy tarzda kurashayotganligini gapirib o'tdi. Shu o'rinda barchamiz bu yomon illatga qarshi kurashishimiz kerakligini takidlab o'tdi.

Jinoyat ishlari bo'yicha

Quvasoy shahar sudining raisi

Zaripov Rustamjon Raxmatjonovich

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-11-29 21:06:36